

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HUDUDIIY MILLIY
KONSEPTLARNING DIALEKTIZMLARDA AKS ETILISHI**

Khusanov Eldor Davlat o'g'li
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ilmiy rahbar: Madjidova Ra'no Urishevna
Filologiya fanlari doktori, professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Til va madaniyat tushunchasi ajralmasdir va muntazam bir-birini taqozo etadi. Til o'zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi, madaniyat ham shu o'rinda til vositasida namayon bo'ladi. Dialektizmlarni ifodalashda ham til va madaniyatning chambarchas bog'liqligiga guvoh bo'lamiz.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida hududiy milliy konseptlarning dialektizmlarda aks etilishi haqida so'z yuritilgan bo'lib, ingliz va o'zbek tillaridagi dialektizmlarning hududiy jihattan farqlari va o'xshashliklari misollar bilan tushuntirilib berilgan.

Kalit so'zlar: dialekt, dialektizm, ingliz tili, o'zbek tili, hududiy konsept, milliy konsept, til-madaniyat tashuvchisi, til-madaniyatning yaratilish vositasi, til-madaniyat ko'zgusi, til-madaniyat boyligi, lingvokulturologiya, til-madaniyat quroli.

**ОТРАЖЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНЫХ НАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПТОВ
В ДИАЛЕКТИЗМАХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Хусанов Элдор Давлат угли
Независимый студент Узбекского государственного университета
мировых языков

Научный руководитель: Маджидова Раъно Уришевна
доктор филологических наук, профессор
Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация: Понятия язык и культура неразделимы и закономерно требуют друг друга. Язык отражает культуру во всех ее аспектах, и культура также проявляется через язык. Мы наблюдаем тесную связь языка и культуры в выражении диалектики. В данной статье говорится об отражении территориальных национальных понятий в английском и узбекском языках в диалектизмах, а также на примерах поясняются территориальные различия и сходства диалектизмов в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: диалект, диалектизм, английский язык, узбекский язык, региональная концепция, национальная концепция, носитель языка и культуры, средства созидания языка и культуры, зеркало языка и культуры, богатство языка и культуры, языковая культура, языковая культура.

**REFLECTION OF REGIONAL NATIONAL CONCEPTS IN
DIALECTICISMS IN ENGLISH AND UZBEK**

Khusanov Eldor Davlat ugli
Independent student of Uzbekistan State University of World Languages

Scientific supervisor: Madjidova Rano Urishevna
Doctor of philological sciences, professor
Uzbekistan State University of World Languages

Annotation: The concept of language and culture are inseparable and regularly require each other. Language reflects culture in all its aspects, and culture is also

manifested through language. We witness the close connection of language and culture in the expression of dialectics. This article talks about the reflection of territorial national concepts in English and Uzbek languages in dialectisms, and the territorial differences and similarities of dialectisms in English and Uzbek languages are explained with examples.

Key words: dialect, dialectism, English language, Uzbek language, regional concept, national concept, carrier of language and culture, means of creation of language and culture, mirror of language and culture, wealth of language and culture, linguistic culture, language cultural weapon

Kirish. Tilshunoslik ilmidagi barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq lingvokulturologiya masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda va zamonaviy tilshunoslikning yangi bir sohasi sifatida tadqiq qilinmoqda. Buning sababi, dastaval, bugungi kunda yuz berayotgan dunyo hamjamiyatida jadal rivojlanish, integratsiyalashuv va madaniyatlarning aralashuvi, globallashtirish, ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, turli xalqlar tili va madaniyatini o'rganish, ularni qiyosiy tadqiq etish, lingvistika muammolarini hal qilish har jihatdan dolzarb vazifa hisoblanmoqda.

Qolaversa, yurtimizda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq va turizm aloqalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, respublikamizning dunyo hamjamiyatida nufuzi oshishida, xorijdagi mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, albatta, til va madaniy aloqalarda ham o'z ifodasini topadi. Aytish joizki, til va madaniyat munosabati, uning ijtimoiy hayotda aks etishi, o'zbek tili va xorijiy tillarni o'rganish masalalari alohida e'tiborni talab qiladi.


Insonlar jamiyatining axborot-faoliyatining o'ziga xosligi jamoaviy axborotni to'plash, saqlash va uzatish uchun maxsus tizimlarning mavjudligidan iborat bo'lib, ulardan eng muhimi – tildir. Bundan tashqari, ayniqsa bugungi kunda til madaniyatning paydo bo'lishining asosiy sharti, uning mavjudligi va rivojlanishining asosiy yo'li bo'lib xizmat qiladi. Til madaniy ahamiyatga ega axborotlarni saqlash va to'plash vositasi hisoblanadi [qarang: 3.1-chizma].

3.1-chizmaga e'tibor beradigan bo'lsak, til va madaniyatning bog'liqligi masallasida til – madaniyat ko'zgusi, til – madaniyat boyligi, til – madaniyatning yaratilish vositasi, til – madaniyat tashuvchisi ekanligiga alohida urg'u berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Til va madaniyatning mushtarakligini til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, shu bilan bir qatorda xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etishida ko'rish mumkin.

3.1-chizma

Til va madaniyatning mushtarakligi. Madaniyatning tilda aks etishi



Til – madaniyat xazinasini, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy, ilmiy va umuman barcha turdagi adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi.

Til – madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini, turli xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini ham o'zlashtiradi.

Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.

Til va madaniyat mushtarakligini o'rganish va tadqiq etish jarayonida tilshunoslikda “lingvokulturologiya” termini fanga kirib keldi.

Lingvokulturologiya – bu tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tilda milliy madaniyat aks etishi va mustahkam o'rnatilgan olishini tadqiq etuvchi sohalar to'qnashgan o'rinda paydo bo'lgan tilshunoslik tarmog'idir. Shuningdek, lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasi bo'lib, madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, tashuvchisi sifatida o'rganadi. Mazkur fan doirasida leksik darajaning til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslikning tarkibiy qismlari va madaniy ma'nolar o'rganiladi. Ma'lumki bu borada ko'plab jahon va o'zbek tilshunos olimlar o'z ta'dqiqotlarini olib borishgan va bugungi kunda ham bu izlanishlar davom etmoqda.

Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V.Fon Gumboldt o'zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma'naviy rivojiga ta'siri” kitobi bilan tamal toshini qo'ygan bo'lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. Ayniqsa, uning “turli tillar, o'z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg'uga ta'siriga ko'ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi”, “tilning o'ziga xos xususiyatlari millatning o'zligiga ta'sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o'rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak” kabi fikrlari keng tarqalgan [Gumboldt 1985: 370, 377]. Shu tariqa, olim tilning turli shakllarida turlicha hissiyot va tafakkur uslublarini ko'radi va tilda madaniy o'ziga xoslik aks etib turadi, degan xulosaga keladi.

Adabiyotlar tahlili va muhokama. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, V.N. Teliya o'z ta'dqiqotlarida lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikatsiya jarayonlarini va ularda qo'llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qilishini ochib berdi. Ilm ahli uchun ayonki, lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi tilshunoslik sohasi bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir”. [1]

V.V. Vorobyov o'z fikr va mulohazalarida lingvokulturologiyaga quyidagicha izoh beradi: “Bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır”. [2]

Lingvokulturologiyaning obyektı – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatni tashuvchisi sifatida o'rganadi. Madaniyatni tildan

foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturologiyaning obyektini lingvistika va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi.[3]

N. Alefirenko fikr va mulohazalariga tayangan holda lingvokulturologiyani quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

-lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

-lingvokulturologiyaning asosiy e'tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

-lingvokulturologiya tilshunoslik fanlari tarkibiga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillarini qiyosiy tadqiq etishda amaliy foydalanish mumkin.[4]

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalarni tadqiq etilganligini ko'rish mumkin:

-muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda miqlar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili o'rganilgani;

-muayyan uslubda yozilgan asardagi lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan;

-qiyosiy yo'nalishdagi tadqiqotlar. Bunda ko'proq rus tilidagi birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan.

O'zbek tilshunoslik ilmidagi ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", "O'xshatishlar – obrazli tafakkur maxsuli", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning "Matnning antroposentrik tadqiqi" mavzusidagi monografiyasi, "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"ni belgilash mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida "til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p shug'ullangan va samarali natijalarga ega bo'lgan olim sifatida professor Nizomiddin Mahmudovni ko'rsatish mumkin. Jumladan, olim o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida "til" va "madaniyat" tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi" demakdir" [5]

N. Mahmudov tilga ehtirom ko'rsatish va unga e'tibor berishni ta'kidlab, quyidagilarni yozadi: "Til benihoya muqaddas va mo'tabar ne'mat, u odam degan mavjudotga shakllantirilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtamligining e'tirofidir".[6]

Sh.Safarovning ta'kidlashicha, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakllanadi va faollashadi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks etishi

tabiiydir.[7]

Tilshunos olimi D. Xudoyberganova lingvokulturologiyaga quyidagicha ta'rif bergan: lingvokulyurologiya (lot. lingua – til + lot. cultura – ishlov berish + grek. logia – ta'limot) tilshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi fan deya ta'riflaydi.[8] Bu borada o'zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasini yaratdi. U o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishni ochib berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berdi.[9]

Xulosa va takliflar. Mazkur sohaning obyektini til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikasi namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi.[10] Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi.

Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Shuningdek, lingvokulturologiyada nutqiy muomala tushunchasiga alohida urg'u berilgan. Ta'kidlashimiz o'rinliki, nominativ, grammatik va stilistik birliklarda mustahkamlangan har qanday muomala lingvokulturologiyaning maxsus tadqiqot predmeti bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: учебное пособие. Наука 2010. –С.21
2. Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М. Издательский центр «Академия», 2001 –С.35-36.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2012 -№ 5 –В. 10.
5. Махмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998 –Б. 3
6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor 2006 В-65.
7. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли лугати. –Т.: Турон замин зиё, 2015 – Б.26.
8. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi – Toshkent: Fan, 2013
9. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Языки русской культуры, 1996. – С. 222.
10. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10